Moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari molekula tarkibiga qaysi atomlar va qanday miqdorda kirganligiga emas, balki ularning birikish tartibiga, ya'ni molekulaning kimyoviy tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

4 bo'lim. Organik moddalarning kimyoviy xossalari

1 bob. Suvga munosabatlari

Suvni organik moddalarga birikishiga gidratatsiyalanish reaksiyasi deyiladi.		
To'yinmagan uglevodorodlar suvni N-ON biriktirib spirtlar hosil qiladilar. Birikish Markovnikov qoidasi bo'yicha boradi: N-ON dagi vodorod atomi qo'sh bog'dagi uglerod atomlaridan qaysi birida vodorod atomlari ko'p bo'lsa o'sha uglerod atomiga birikadi, -ON gruppasi esa bu bog'dagi boshqa uglerod atomiga birikadi.		$CH_3-CH=CH_2+H_2O \xrightarrow{kat} CH_3-CH-CH_3$ propen (propilen) | OH Propanol -2 (izopropil spirt)
Suvni alkinlarga birikishidan olinadigan spirtlar beqaror va tezlik bilan aldegidlarga yoki ketonlarga izomerlanadi (Kucherov reaksiyasi).		$HC\equiv CH + H_2O \xrightarrow[H^+]{Hg^{2+}} [CH_2=CH] \xrightarrow{izomerlanish} CH_3-CHO$ | etin ON etanal (atsetilen) → vinil spirt | || $CH_3-C\equiv CH + H_2O \xrightarrow[H]{Hg^{2+}} [CH_3-C=CH_2] \xrightarrow{izomerlanish} CH_3-C-CH_3$ propin ON O atseton
Kuchli oksidlovchilar ishti-rokida suvning alkenlarga birikishidan ikki atomli spirtlar – glikollar, alkin-larga birikishidan ikki ne-gizli yoki bir negizli kislota-lar hosil bo'ladi. Bunda $KMnO_4$ ning rangsizlanishi sodir bo'ladi, shuning uchun bu reaksiyalar to'yinmagan ugle-vodorodlar uchun sifat reak-siyalari hisoblanadi.		$CH_3-CH=CH_2+H_2O+[O] \xrightarrow{KMnO_4} CH_3-CH-CH_2$ propen (propilen) | | OH OH propendiol – 1,2 (propilenglikol) $HC\equiv CH+H_2O+3[O] \xrightarrow{KMnO_4} NOOC-COOH$ etin oksalat k-ta

		(atsetilen) $SN_3{-}S{=}S{-}SN_3 + N_2O + 3[O] \xrightarrow{KMnO_4} 2CH_3COOH$ butin -2 sirka k-ta
Karbon kislotalarning sik-lik amidlariga suvning birikishi tegishli amino-kislotalarning hosil bo'li-shiga olib keladi.	☞	$SN_2{-}SN_2{-}SN_2$ | $C{=}O + N_2O \rightarrow NH{-}(CH_2)_5{-}COOH$ S капролактам ε-аминокапрон кислота
Suvni alifatik aminlarga birikishi asoslarning hosil bo'lishiga olib keladi.	☞	$C_2H_5NH_2 + H_2O \rightarrow [C_2H_5NH_3]OH$ etilamin etilammoniy gidroksid $(C_2H_5)_2NH + H_2O \rightarrow [(C_2H_5)_2NH_2]OH$ dietilamin dietilammoniy gidrooksidi $(C_2H_5)_3N + H_2O \rightarrow [(C_2H_5)_3NH]OH$ trietilamin trietilammony
Ko'pchilik organik birik-malar suv ta'siridan par-chalanadilar. Bu jarayonga gidroliz deyiladi. Gid-rolizga uchraydilar: • murakkab efirlar	☞	$HCOOC_4H_9 + H_2O \rightarrow HCOOH + C_4H_9OH$ butilformiat chumoli kislotasi butanol
• triglitseridlar (yog'lar)	☞	$SH_2\text{-}OCO\text{-}C_{17}H_{35}$ $CH_2\text{-}OH$ $C_{17}H_{35}COOH^*$ | | $SH\text{-}OCO\text{-}C_{15}H_{31} + 3H_2O \Leftrightarrow CH\text{-}OH + C_{15}H_{31}COOH^{**}$ $SH_2\text{-}OCO\text{-}C_{17}H_{33}$ $CH_2\text{-}OH$ $C_{17}H_{33}COOH^{***}$ Palmitooleinostearat glitserin *stearin k-ta **palmitin k-ta ***olein k-ta

• galogenli hosilalari	☞	$CH_3Cl+H_2O \leftrightarrow CH_3OH+HCl$ xlormetan metanol $SN_2-SN_2 \quad SN_2-SN_2$ $\vert \quad \vert + 2H_2O \leftrightarrow \vert \quad \vert + 2HCl$ $Cl \quad Cl \quad OH \quad OH$ dixloretan – 1,2 etandiol – 1,2 (etilenglikol)
polipeptidlar (oqsillar)	☞	$SN_3-SN-SO-NH-CH-COOH+H_2O \leftrightarrow 2CH_3-CH-COOH$ $\vert \quad \vert \quad \vert$ $NH_2 \quad CH_3 \quad NH_2$ alanil-alanin (dipeptid) alanin

• alkogolyatlar *alifatik spirtlarning alkogolyatlarining gidrolizi – qaytmas jarayon, chunki hosil bo'lgan mahsulotlar amalda bir-birlari bilan reaksiyaga kirishmaydilar. *aromatik spirtlarning alkogolyatlarining gidrolizi – qay-tar jarayon, odatdagi sharoitda reaksiya muvozanati kuchli darajada chapga siljigan va bu reaksiya ahamiyatga ega emas.	☞	$S_2H_5ONa + H_2O \longrightarrow C_2H_5OH + NaOH$ natriy etilat — etanol $S_6H_5ONa + H_2O \not\rightarrow$ natriy fenolyat
• amidlar	☞	$SN_3{-}S(=O){-}NH_2 + N_2O \xrightarrow{t,kat} SN_3{-}S(=O){-}OH + NH_3\uparrow$ atsetamid — sirka k-ta
• polisaxaridlar	☞	$(S_6N_{10}O_5)n + nH_2O \quad nC_6H_{12}O_6$ kraxmal — glyukoza
2 bob. Bir-birlariga munosabatlari		

To'yinmagan uglevodorodlar bir-birlari bilan ulkan molekulaga birikishlari mumkin. Ularning Mr yuz minglab birlikka etadi. Bu reaksiyaga polimerlanish reaksiyasi deyiladi. («poli »- ko'p, meros - qism), a olingan mahsulotlarga polimerlar deyiladi. Polimerlanish qizdi-rilganda katalizator ishtiro-kida yoki ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida boradi.

$$nCH_2=CH-CH_3 \xrightarrow{t,kat} -CH(CH_3)-CH_2-$$

propilen — polipropilen

$$nCH_2=CH-Cl \xrightarrow{t,kat} -CH_2-CH(Cl)-$$

vinilxlorid — polivinilxlorid

$$nCH_2=CH-CH=CH_2 \xrightarrow{t,kat} (-CH_2-CH=CH-CH_2-)_n$$

divinil — divinil (sintetik) kauchuk

Monomerning ikkita mole-kulasini birikishi bilan bora-digan polimerlanishga dimer-lanish, uchtasi biriksa – trimerlanish deyiladi.

$$nCH_2=C(CH_3)-CH=CH_2 \xrightarrow{t,kat} -CH_2-C(CH_3)=CH-CH_2-$$

izopren — izopren (tabiy kauchuk)

Agar to'yinmagan uglevodo-rodlarning har xil moleku-lalari bir-birlari bilan bi-riksa, u holda jarayonga birga-likdagi polimerlanish yoki so-polimerlanish deyiladi, olingan polimerga – sopolimer deyiladi.

$$HC\equiv CH + HC\equiv CH \xrightarrow{Cu^+} CH_2=CH-C\equiv CH$$

atsetilin atsetilin — vinilatsetilin

$$3HC\equiv CH \xrightarrow[\text{oxir. ko'mir}]{600^\circ C} C_6H_6$$

atsetilen — benzol

$$nCH_2=CH-CH=CH_2 + nC_6H_5-CH=CH_2 \xrightarrow{t,kat}$$

butadien-1,3 — stirol

$$\rightarrow -CH_2-CH=CH-CH_2-CH(C_6H_5)-CH_2-$$

butadienstirol kauchuk

Agar molekulalarning bir – birlari bilan birikishidan polimerdan tashqari quyi mole-kulyar birikmalar (H_2O, NH_3, HG) hosil bo'lsa, u holda bunday jarayonga polikondensatsiyala-nish deyiladi.



formaldegid fenol fenol formaldegid smolasi

Polikondensatsiyalanish reak-siyasiga misol bo'ladi:

- ε -aminokapron kislotasidan kapron va ω aminoenant kislo-tasidan enant kabi sintetik tolalarning olish reaksiyalari
- aminokislotalardan polipep-tidlarni (oqsillarni) olish reaksiyalari

Polikondensatsiyalanish va po-limerlanish reaksiyalari bir-birlaridan farq qiladilar:

- dastlabki moddalarning tar-kibi bilan,
- mahsulotlar tarkibi bilan



ε -aminokapron kapron

(6-aminogeksan) k-ta



ω -aminoenant (7-aminogeptan) enant



glitsin alanin glitsil-alanin (dipentid)

6 bob. Tuzlarga munosabatlari

Organik moddalar bi-lan tuzlar orasidagi reaksiyalar kam. Faqat HCOOH, CH_3COOH, C_2H_5COOH C_3H_7COOH, o'rtacha kuchdagi kislotalar bo'lgani uchun ancha kuchsiz kislotalar (H_2CO_3, H_2S, H_2SiO_3) ni ularning tuzlaridan si-qib chiqaradi.	☞	$K_2S+2HCOOH \rightarrow 2HCOOK+H_2S\uparrow$ chumoli kislota kaliy formiat $K_2SiO_3+2CH_3COOH \rightarrow 2CH_3COOK+H_2SiO_3\downarrow$ sirka kislota kaliy formiat $Na_2CO_3+2C_2H_5COOH \rightarrow 2C_2H_5COONa+H_2O+CO_2\uparrow$ propion kislota natriy propionat $NaHCO_3+C_3H_7COOH \rightarrow C_3H_7COONa+H_2O+CO_2\uparrow$ butan natriy kislota butirat
Kuchli oksidlovchi xossasiga ega bo'lgan tuz-lar, ($KMnO_4$, $K_2Cr_2O_7$) eritmalarda ko'pchilik organik moddalarni oksidlaydilar.	☞	$3CH_2=CH_2+4H_2O+2KMnO_4 \rightarrow 3CH_2(OH)-CH_2(OH)+2MnO_2\downarrow+2KOH$ etilen etilenglikol $3C_2H_5OH+K_2Cr_2O_7+4H_2SO_4 \rightarrow CH_3CHO+K_2SO_4+Cr_2(SO_4)_3+7H_2O$ etanol sirka aldegid yoki atsetaldegid

Odatda ($AlCl_3$, $FeBr_3$, $HgCl_2$, $CuCl_2$, $NiCl_2$) va boshqa tuzlar organik sintezda katalizatorlar sifatida ishlatiladi.

7 bob. Metallarga munosabatlari

Aktiv metallar (ish-qoriy, ishqoriy-er, ham-da Zn va Mg) ta'sir-lashadilar. Karbon kislotalar bi-lan – tuz hosil qila-dilar va vodorod aj-raladi.	☞	$2CH_3COOH+Zn \rightarrow (CH_3COO)_2Zn+H_2\uparrow$ sirka k-ta rux atsetat $HOOC-COOH+2Na \rightarrow NaOOC-COONa+H_2\uparrow$ (oksalat k-ta) natriy oksalat

Aminokislotalar bilan tuz hosil bo'ladi va vodorod ajralib chiqadi	$H_2C_2O_4+2Na \rightarrow Na_2C_2O_4+H_2\uparrow$ $2C_6H_5COOH+2K \rightarrow 2C_6H_5COOK+H_2\uparrow$ benzoy k-ta kaliy benzoat

Galogen hosilalari bi-lan (Vyurs reaksiyasi) – alkanlarni hosil qi-ladi. Vyurs reakslyasi-dan uglevodorodlar zan-jirini uzaytirishda foydalaniladi.	☞	$CH_3—Cl + 2Na + Cl—CH_3 \rightarrow CH_3—CH_3 + 2NaCl$ metilxlorid metilxlorid etan $SH_3—Br + 2Na + Br—C_2H_5 \rightarrow CH_3—C_2H_5 + 2NaBr$ brommetan brometan propan $S_2H_5—Sl + 2Na + Cl—C_6H_5 \rightarrow C_2H_5—C_6H_5 + 2NaCl$ xloretan xlorbenzol etilbenzol $S_2H_5—Sl + 2Na + Cl \rightarrow C_2H_5 + 2NaCl$

Spirtlar bilan – alkogolyatlar hosil qiladi	☞	$2CH_3—OH+2Na \rightarrow 2CH_3—ONa+H_2\uparrow$ metanol natriy metilat $CH_2—OH \quad CH_2—O$ $\vert \quad + Ba \rightarrow \vert \quad Ba+H_2\uparrow$ $CH_2—OH \quad CH_2—O$ etandiol-1,2 bariy etilenglikol (etilenglikol) $CH_2—OH \quad CH_2—ONa$ $\vert \quad \vert$ $2CH—OH+6Na \rightarrow 2CH—ONa+3H_2\uparrow$ $\vert \quad \vert$ $CH_2—OH \quad CH_2—ONa$ propantriol -1,2,3 trinatriyglitserat (glitserin) Metall etishmaganda birlamchi va ikkilamchi almashingan maxsulotlar – natriy glitserinat va natriy ikkigli-serinatlar hosil bo'ladi.
Fenol bilan - fenolyatlarni hosil qiladi.	☞	 $OH+2K \rightarrow 2$  $OK + H_2\uparrow$ $2C_6H_5—OH + 2K \rightarrow 2C_6H_5—OK + H_2\uparrow$ fenol kaliy fenolyat
Ikkigalogenli hosila-lar	☞	

bilan – sharoitga va metall aktivligiga bog'-liq holda yoki alken, yoki sikloalkan hosil bo'-ladi.	SH_2-Cl | +Zn ⟶ $CH_2=CH_2+ZnCl_2$ CH_2-Cl eten 1,2-dixloretan CH_2-Cl CH_2 SH_2 + 2Na ⟶ / \ +2NaCl CH_2-Cl H_2C-CH_2 1,3 dixlorpropan sikloporopan



Oksidlanish reaksiyalariga misollar:

- alkanlar

$2SH_4 + O_2 \xrightarrow{t,kat} 2CH_3OH$

metan — metanol

$SH_4 + O_2 \xrightarrow{t,kat} H-C + H_2O$

metan — H

metanal

$2SH_4 + O_2 \xrightarrow{t,kat} 2HCOOH + 2H_2O$

metan — chumoli k-ta

- alkenlar

$CH_2 = CH_2 + [O] \xrightarrow{t,kat} CH_3-C$

etilen — H

etanal

$2CH_2 = CH_2 + O_2 \xrightarrow{t,kat} 2H_2C - CH_2$

etilen — \ /

O

etilen oksid

- alkinlar

$HC \equiv CH + [O] \xrightarrow{t,kat} HOOC-COOH$

atsetilin — oksalat k-ta

- spirtlardan dastlab aldegidlar hosil bo'ladi, keyin esa o'shancha sondagi uglerod atomlari bo'lgan karbon kislotalar. Odat-dagi sharoitda spirtlar-ning oksidlanishi sekin boradi. Havo kislorodi bilan etil spirtining ok-sidlanishi vinoning achi-shini tushuntiriladi.



• <u>aromatik uglevodorodlar</u> Benzol oksidlovchilar ta'si-riga chidamli. Benzol gomo-loglari yon radikalning uzun-ligidan qat'iy nazar kis-lotali muhitda $KMnO_4$ bilan benzoy kislotagacha ok-sidlanadi.	☞	$C_6H_6 - [O] \not\rightarrow$ $C_6H_5 - CH_3 + 3[O] \xrightarrow{H^+, KMnO_4} C_6H_5 - COOH + H_2O$ metilbenzol benzoy k-ta (toluol) $C_6H_5 - C_2H_5 + 6[O] \xrightarrow[KMnO_4]{H^+} C_6H_5 - COOH + 2H_2O + CO_2\uparrow$ etilbenzol benzoy k-ta

• <u>aldegidlar</u> Aldegidlarni oksid-lanishi odatdagi sharo-itda oson boradi.	☞	$H-C(=O)-H + [O] \rightarrow H-COOH$ metanal chumoli k-ta (formaldegid) $SH_3-C(=O)-H + [O] \rightarrow SH_3-COOH$ etanal sirka k-ta (atsetaldegid) $S_6H_5-C(=O)-H + [O] \rightarrow S_6H_5-COOH$ benzaldegid benzoy k-ta
YOnish reaksiyalariga misollar:		
• alkanlar	☞	$S_nH_{2n+2} + \frac{3n+1}{2} O_2 \longrightarrow nCO_2 + (n+1)H_2O$

		$2C_2H_6+7O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+6H_2O$ $2C_2H_6+5O_{2(kam)} \xrightarrow{t} 4CO+6H_2O$
• alkenlar, sikloalkanlar	☞	$C_nH_{2n}+\frac{3n}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+nH_2O$ $CH_2=CH_2+3O_2 \xrightarrow{t} 2CO_2+2H_2O$ H_2C-CH_2 $\vert \quad \vert +6O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+4H_2O$ H_2C-CH_2
• alkinlar, dienlar	☞	$C_nH_{2n-2}+\frac{3n-1}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+(n-1)H_2O$ $2HC\equiv CH+5O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+2H_2O$ $2H_2C=CH-CH=CH_2+11O_2 \xrightarrow{t} 8CO_2+6H_2O$
• arenlar (aromatik uglevodorodlar)	☞	$C_nH_{2n-6}+\frac{3n-3}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+(n-3)H_2O$ $2C_6H_6+15O_2 \xrightarrow{t} 12CO_2+6H_2O$
• spirtlar, oddiy efirlar	☞	$C_nH_{2n+2}O+\frac{3n}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+(n+1)H_2O$ $2C_2H_5OH+6O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+6H_2O$ $SN_3\text{-}O\text{-}SN_3+4O_{2(kam)} \xrightarrow{t} 4SO+6N_2O$
• karbon kislota-lari, murakkab efirlar	☞	$C_nH_{2n}+\frac{3n-2}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+nH_2O$ $CH_3COOH+2O_2 \xrightarrow{t} 2CO_2+2H_2O$ $CH_3COOS_2H_5+5O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+4H_2O$

• aldegidlar, ketonlar	☞	$C_nH_{2n}O+\frac{3n-1}{2}O_2 \xrightarrow{t} nCO_2+nH_2O$ $2CH_3CHO+5O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+4H_2O$ $CH_3-\underset{\underset{O}{\|}}{C}-CH_3+4O_2 \xrightarrow{t} 3CO_2+3H_2O$
• aminlar		$C_nH_{2n+3}N+\frac{6n+3}{2}O_2 \xrightarrow{t} 2nCO_2+(2n+3)H_2O+N_2$ $4CH_3NH_2+9O_2 \xrightarrow{t} 4CO_2+10H_2O+2N_2$ $4C_6H_5NH_2+31O_2 \xrightarrow{t} 24CO_2+14H_2O+2N_2$
• aminokislotalar, nitrobirikmalar	☞	$2C_nH_{2n+1}NO_2+\frac{6n-3}{2}O_2 \xrightarrow{t} 2nCO_2+(2n+1)H_2O+N_2$ $4C_6H_5NO_2+25O_2 \xrightarrow{t} 24CO_2+10H_2O+2N_2$ $4NH_2-CH_2-COOH+9O_2 \xrightarrow{t} 8CO_2+10H_2O+2N_2$
Gidrogenlash reaksiyala-ri molekulyar yoki atomar vodorodni birikishi – yuqori temperatura va bosimda katalizatorlar ta'sirida boradi. Gidrogenlashga uchraydilar:	☞	

▫ sikloalkanlar – alkanlar hosil bo'ladi. ▪ alkenlar – alkanlar hosil bo'ladi	☞	CH_2 / \ $+ H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_3—CH_3—CH_3$ $H_2C—CH_2$ propan siklopropan $C_2H_5—CH = CH_2 + H_2 \xrightarrow{t,kat} C_2H_5—CH_2—CH_3$ buten-1 butan $CH_2 = CH_2 + H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_3—CH_3$ eten (etilen) etan

alkinlar – dastlab alkenlar keyin esa alkanlar hosil bo'ladi.	☞	$HC \equiv CH + H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_2 = CH_2$ etin (atsetilen) eten $HC \equiv CH + 2H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_3—CH_3$ etin (atsetilen) etan $SH_3—C \equiv CH+H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_3—CH = CH_2$ propin propen $CH_3 - C \equiv CH + 2H_2 \xrightarrow{t,kat} CH_3 - CH_2 - CH_3$ propin propan
Arenlar – sikloalkan-lar hosil bo'ladi. Aren-larni gidrogenlaganda benzol yadrosining to'yin-magan xarakteri yo'qoladi	☞	benzol siklogeksan $+3H_2 \xrightarrow{t,kat}$

• dienlar - dastlab alkenlar keyin esa alkanlar hosil bo'ladi.	☞	
<u>aldegidlar</u> – birlamchi spirtlar hosil bo'ladi.	☞	
<u>ketonlar</u> – ikkilamchi spirtlar hosil bo'ladi.	☞	
• <u>karbon kislotalari</u> – dastlab aldegidlar, keyin esa molekulada o'shancha uglerod atomlari bo'lgan spirtlar hosil bo'ladi.	☞	

• triglitseridlar to'yinmagan kislota qoldiqlari bo'lgan (suyuq yog'lar) – qattiq yog'lar hosil qiladi. To'yin-magan kislota qoldiq-lari bo'lgan yog'larni gidrirlashga gidrogen-lash deyiladi.	☞	$CH_2-O-CO-C_{17}H_{33}$ $CH_2-O-CO-C_{17}H_{35}$ | | $CH-O-CO-C_{17}H_{33} + 3H_2 \rightarrow CH-O-CO-C_{17}H_{35}$ | | $CH_2-O-CO-C_{17}H_{33}$ $CH_2-O-CO-C_{17}H_{35}$ suyuq yog' qattiq yog' ucholeat uchstearat
• nitrobirikmalar – aminlarni hosil qi-ladi. Nitrobenzolni anilingacha qaytarish reaksiyasiga Zinin reaksiyasi deyiladi.	☞	$CH_3-NO_2+6[H] \xrightarrow[Fe+HCl]{t,kat} CH_3-NH_2+2H_2O$ nitrometan metilamin $C_6H_5-NO_2+6[H] \xrightarrow[Fe+HCl]{t,kat} C_6H_5-NH_2+2H_2O$ nitrobenzol anilin $-NO_2 + 6[H] \xrightarrow[Fe+HCl]{t,kat} -NH_2 + 2H_2O$

Galogenlash reaksiyalari – organik modda molekulasiga S-G bog'ini hosil qiladigan galogenlarning atomlarini kiritish. Galogenlashga uch-raydilar: • *alkanlar* - galogen hosi-lalarini hosil qiladilar. Alkanlarni galogenlash yorug'likda boradi. Reaksiya mexanizmi zanjirli erkin radikalli. Reaksiya vodorod atomlariga galogen atomla-rini to'liq almashinishiga qadar davom etadi. Galogen-larning eritmalari (xlorli yoki bromli suv) bilan al-kanlar ta'sirlashmaydilar.	☞	$CH_4+Cl_2 \xrightarrow{h\nu} CH_3Cl+HCl$ metan xlormetan $CH_3Cl + Cl_2 \xrightarrow{h\nu} CH_2Cl_2+HCl$ xlormetan dixlormetan $CH_2Cl_2 + Cl_2 \xrightarrow{h\nu} CHCl_3+HCl$ dixlormetan trixlormetan (xloroform) $CHCl_3 + Cl_2 \xrightarrow{h\nu} CCl_4+HCl$ trixlormetan tetraxlormetan (xloroform) $CH_4 + Cl_2$ (sust. eritma) →
• *alkenlar* – digalogenli hosilalarini hosil qila-dilar.	☞	$SH_3—CH = CH_2+Cl_2 \rightarrow CH_3—CH—CH_2$ propen Cl Cl 1,2-dixlorpropan
• *alkinlar* – dastlab di-galogenli hosilalari keyin tetragalogenli hosilalari hosil bo'ladi.	☞	Cl Cl $HC \equiv CH+Cl_2 \rightarrow CH = CH+Cl_2 \rightarrow CH—CH$ etin (atsetilin) Cl Cl Cl Cl 1,2-dixloreten 1,1,2,2-tetraxloretan

• *dienlar* – dastlab digalo-gen hosilalari keyin tet-ragalogen hosilalari ho-sil bo'ladi. Alkenlarni, alkinlarni va dienlarni galogenlash odatdagi sharo-itda oson boradi.	1 2 3 4 $H_2C = CH—CH = CH_2 + Cl_2 \rightarrow CH_3—C = C—CH_3$ butandien 1,3 (divinil) | | Sl Cl 2,3-dixlorbuten-2 1 2 3 4 $CH_3—C = C—CH_3 + Cl_2 \rightarrow CH_2—CH—CH—CH_2$ | | | | | | Cl Cl Cl Cl Cl Cl 2,3-dixlorbuten-2 1,2,3,4-tetraxlorbutan

aromatik uglevodorodlari *benzol xalqasida, katalizatorga bog'liq holda galogenga yoki hamma vodorod atomlari, yoki bittasi almashinadi.	☞	$S_6H_6+Cl_2 \xrightarrow{FeCl_3} C_6H_5-Cl+HCl$ benzol xlorbenzol $-H + Cl-Cl \xrightarrow{FeCl_3} -Cl+HCl$ $S_6H_6+6Cl_2 \xrightarrow{HCl} C_6Cl_6+6HCl$ benzol geksaxlorbenzol Cl Cl $+ 6Cl_2 \xrightarrow{AlCl_3}$ Cl +6HCl Cl Cl



*katalizator ishtiro-kida benzol gomolog-lari galogenlanganda orto- va paragalogenli hosilalari aralashmasi galogen mo'l bo'lganda 2,4,6 trigalogenli hosi-lalari hosil bo'ladi.	☞	metilbenzol (toluol) o-xlortoluol p-xlortoluol  $C_6H_5CH_3 + 3Cl_{2(mo'l)} \xrightarrow{FeCl_3} C_6H_2Cl_3CH_3 + 3HCl$ metilbenzol 2,4,6-trixlortoluol
*<u>fenol</u> va anilinlarni ham katalizator ishti-rokida galogenlash yuqo-ridagiga o'xshash boradi.	☞	fenol (karbol k-ta) 2,4,6-trixlorfenol $C_6H_5OH + 3Cl_{2(mol)} \xrightarrow{FeCl_3} C_6H_2Cl_3OH + 3HCl$ Anilin (karbol k-ta) 2,4,6-uchxloranilin $C_6H_5NH_2 + 3Cl_{2(mol)} \xrightarrow{FeCl_3} C_6H_2Cl_3NH_2 + 3HCl$

*benzolni galogen ish-tirokida <u>katalizatorsiz</u> qizdirilganda galogen-larni birikishiga olib keladi. Bunda benzol xal-qasining to'yinmaganlik xarakteri yo'qoladi.	☞	G G G geksaxlorsiklogeksan (geksaxloran)  Cl Cl $+3Cl_2 \xrightarrow{l}$ Cl Cl

*benzol gomologlarini galogenlar bilan kataliza-torsiz yorqin yorug'likda qizdirilganda yon radikaldagi vodorod atomlari galogenlarga almashadi.	☞	$C_6H_5-CH_3+Cl_2 \xrightarrow{hv,t} C_6H_5-CH_2Cl+HCl$ metilbenzol — xlormetilbenzol (toluol) — (benzilxlorid) 
Galogenlarni bir negizli to'yingan karbon kislotalarga ta'sir ettirilgan-da, vodorod atomlariga almashinish uglevodorod radikallarida sodir bo'ladi va bunda birinchi navbatda almashinish karboksil (-SOON) gruppaga nisba-tan α-holatdagi uglerod atomida bo'ladi.		$CH_3COOH+Cl_2 \xrightarrow{hv,t} CH_2Cl-COOH+HCl$ sirka k-ta — xlor sirka k-ta $CH_2Cl-COOH+Cl_2 \xrightarrow{hv,t} CHCl_2-COOH+HCl$ sirka k-ta — dixlorsirka k-ta $CHCl_2-COOH+Cl_2 \xrightarrow{hv,t} CCl_3-COOH+HCl$ uchxlorsirka k-ta 3 2 1 — 3 2 1 β α — β α $CH_3-CH_2-COOH + Cl \rightarrow CH_3-CHCl-COOH+HCl$ propion k-ta — 2 xlorpropan k-ta (α-xlorpropan)

9 bob. Qizdirishga bo'lgan munosabatlari

150-250^{0}S dan oshmaydigan haroratda, kataliza-tor ishtirokida atomlarning birikish tartibini o'zgartirish-dan iborat bo'lgan or-ganik moddalarning struk-turalarini qayta tuzilishi sodir bo'la-di. Bu jarayonga izo-merlanish deyiladi, olingan moddaga esa izomerlar deyiladi.	☞	$SN_3-SN_2-SN_2-SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_3-SN-SN_3$ butan — SN_3 — izobutan 4 3 2 1 — 4 3 2 1 $SN_3-SN_2-SN=SN_2 \xrightarrow{t,kat} SN_3-SN=SN-SN_3$ buten-1 — buten-2 4 3 2 1 — 3 2 1 $SN_3-SN_2-SN=SN_2 \xrightarrow{t,kat} SN_3-S=SN_2$

		buten-1 SN_3 2- metilpropen (izobutan)
300-600^{0}S haroratda katalizator ishtirokida S—N, S—O, ya'ni bog'larning uzilishi sodir bo'ladi. Bunda quyidagilar hosil bo'ladi: • vodorod molekulasi (degidridlash)	☞	$2SN_4 \xrightarrow{t,kat} SN_2{=}SN_2{+}2N_2$ metan eten $S_2N_4 \xrightarrow{t,kat} SN{\equiv}SN{+}N_2$ eten (etilen) etin (atsetilen) $2SN_4 \xrightarrow{t,kat} SN{\equiv}SN{+}3N_2$ etin $SN_3{-}SN_2{-}SN_2{-}SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_3{-}SN{=}SN{-}SN_3 + N_2$ butan buten-2  $+3H_2$ $SN_3{-}SN_2{-}SN_2{-}SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_2{=}SN{-}SN{=}SN_2 + N_2$ butan butadien-1,3 $SN_3{-}\underset{\vert}{SN}{-}SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_3{-}\underset{\Vert}{S}{-}SN_3 + N_2$ ON O propanol – 2 atseton (izopropil spirt)
• suv N_2O molekulasi (degidratlanish)	☞	$SN_3{-}SN_2{-}ON \xrightarrow{t,kat} SN_2{=}SN_2 + N_2O$ etanol eten $2SN_3SOON \xrightarrow{t} (SN_3SO)_2O + N_2O$ sirka kislota sirka kislota angidridi $NOOS{-}SOON \xrightarrow{t,H_2SO_4} SO_2 + SO + N_2O$ etandian kislota (oksalat) $NSOON \xrightarrow{t,H_2SO_4} SO + N_2O$

Karbon kislotalarining ammoniyli tuzlari qizdirilganda amidlarga aylanadi.	☞	metan kislota (chumoli) O $CH_3COONH_4 \xrightarrow{t} CH_3-C + H_2O\uparrow$ ammoniy NH_2 atsetat atsetamid
suv va vodorod molekulalari (degidratasiya va degidridlash)	☞	$2SN_3-SN_2-ON \xrightarrow{t,kat} SN_2=SN-SN=SN_2+2N_2O+N_2\uparrow$ etanol butadien-1,3 (divinil)
• H_2 molekulasi uglerod molekulasini siklilarga tutashishi (siklanish, alkan-larni aromatlanishi)	☞	$CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-CH_2-CH_3 \xrightarrow{t,kat}$  $CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-CH_2-CH_2-CH_3 \xrightarrow{t,kat}$  н-гептан толуол $C_6H_{13}-R \xrightarrow{t,kat}$ 
• yoki molekulalarni bir-birlari bilan birikib yuqori molekulalarning hosil bo'lishi bilan (polimerlanish, polikondensatsiyalanish)	☞	$nSN_2=SN_2 \xrightarrow{t,kat} (-SN_2-SN_2-)_n$ etilen polietilen $nSN_2=SN-SN=SN_2 \xrightarrow{t,kat} (-SN_2-SN=SN-SN_2-)_n$ butadien-1,3 polibutadien
700-1000°S haroratda S—S bog'larning uzilishi natijasida molekulalarni ancha kichik molekulalarga ajralishi sodir bo'ladi. (kreking)	☞	$SN_3-SN_2-SN_2-SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_3-SN_3+SN_2=SN_2$ butan etan eten

1000^0S dan yuqori temperaturada hamma kimyoviy bog'lar buziladi va kreking natijasida S, N_2 va boshqa oddiy moddalar hosil bo'ladi.	☞	$SN_4 \xrightarrow{t,kat} S+2N_2$ metan $SN_2=SN_2 \xrightarrow{t,kat} 2S+2N_2$ eten (etilen) $NS \equiv SN \xrightarrow{t,kat} 2S+2N_2$ etin (atsetilen) $2SN_3-NH_2 \xrightarrow{t,kat} 2S+5N_2+N_2$ metilamin

10 bob. Organik moddalarga sifatiy reaksiyalar

Modda, funksional gruppa	Reaktiv	Reaksiya	Xarakterli belgilari
To'yinmagan uglevodorodlar (alkenlar, alkinlar, dienlar) qo'sh bog'lar	$KMnO_4$ eritmasi (gunafsha-pushti)	$SN_2=SN_2 + N_2O \xrightarrow{[O]} SN_2-SN_2$ eten OH OH etilenglikol	Eritmani rangsizlanishi
	I_2 eritmasi (qo'ng'ir)	$SN_2=SN-SN_3+I_2 \rightarrow SN_2-SN-SN_3$ propen 1,2 diyodpropan	Eritmani rangsizlanishi
	Br_2 eritmasi (sariq)	$SN_2=SN-SN=SN_2+Br \rightarrow$ butadien-1,3 $\rightarrow SN_2-SN=SN-SN_2$ Br Br 1,4-dibrombuten-2	Eritmani rangsizlanishi
Atsetilen	Ag_2O-ning ammiakli eritmasi	$SN \equiv SN + Ag_2O \rightarrow AgS \equiv SAg\downarrow + N_2O$ atsetilen kumush atsetalenid	Sariq rangli cho'kma hosil bo'lishi (portlovchi)
Benzol	Nitrolovchi aralashma $HNO_3+H_2SO_4$	$S_6N_6+HNO_3 \xrightarrow[H_2SO_4]{t} S_6N_5-NO_2+H_2O$ benzol nitrobenzol	Achchiq bodom hidli, och sariq rangli, og'ir suyuqlikning hosil bo'lishi

Toluol	$KMnO_4$ eritmasi (pushti)	$S_6N_5SN_3+3[O]\rightarrow S_6N_5SOON+H_2O$ toluol benzoy kislota	Eritmani rangsizlanishi
Fenol (Karbol kislota)	$FeCl_3$ eritmasi (och sarlq)	$3S_6N_5ON+FeCl_3\rightarrow(S_6N_5O)_3Fe+3HCl$ fenol temir (III) fenolyati	eritmaning gunafsha rangga kirishi
	Br_2 to'yingan eritmasi (bromli suv)	 $S_6N_5ON+3Br_2\rightarrow$ ↓ $+3HBr$ fenol Br	O'ziga xos hidli oq cho'kmaning hosil bo'lishi
Anilin (aminobenzol)	$CaOCl_2$ xlorli ohak eritmasi (rangsiz)		Eritmaning gunafsha rangga kirishi
Etanol	I_2 to'yingan eritmasi + NaOH eritmasi	$S_2N_5ON+4I_2+6NaOH\rightarrow$ etanol $\rightarrow CHI_3\downarrow+HCOONa+5NaI+5H_2O$	O'ziga xos hidli mayda kristal cho'kma CHI_3, och sariq rangli
	CuO qizdirilgan mis simi	$S_2N_5ON+CuO\rightarrow Cu\downarrow+CH_3CHO+H_2O$ etanol etanal	Cu metallning ajralishi, atsetaldegid-ning o'ziga xos hidi
Gidroksogruppa (spirtlar, fenol gidrokso-kislotalar)	Metallik natriy	$2R-OH+2Na\rightarrow 2R-ONa+H_2\uparrow$ $2S_6N_5ON+2Na\rightarrow 2S_6N_5ONa+H_2\uparrow$ fenol natriy fenolyat	Gaz pufakchalari-ning chiqishi (N_2), kolloid-simon massa-ning hosil

			bo'lishi
Efirlar (oddiy va murakkab)	NaOH ishtirokida qizdirilganda N_2O bilan (gidroliz)	$CH_3COOC_2H_5+H_2O \leftrightarrow CH_3COOH+$ etilatsetat $+C_2H_5OH$ sirka kislota	O'ziga xos hid
Ko'p atomli spirtlar, glyukoza	Kuchli ishqoriy muhitda yangi cho'ktirilgan mis (II) gidroksidi		Eritmaning yorqin ko'k rangga bo'yalishi

Karbonil gruppa -  -S N (aldegidlar, glyukoza)	Ag_2O ning ammiakli eritmasi	$R-CHO+Ag_2O \xrightarrow[NH_3]{t} R-COOH+2Ag\downarrow$ aldegid karbon kislota	Idish devorlarida yaltiroq Ag qoplama (kumush ko'zgu) hosil bo'lishi
	YAngi cho'ktirilgan $Cu(OH)_2$	 $\xrightarrow{t} R-COOH+Cu_2O\downarrow+2H_2O$ aldegid karbon kislota	Cu_2O ning qizil cho'kmasi hosil bo'lishi
Karbon kislotalar	Lakmus		Eritmaning pushti rangga bo'yalishi
	Spirt+ kons. H_2SO_4	$R-COOH+HO-R_1 \overset{t}{\leftrightarrow} RCOOR_1+H_2O$ karbon kislota spirt murakkab efir	Hosil bo'lgan murakkab efirning o'ziga xos hidi
CHumoli kislota	Lakmus		Eritmaning pushti rangga bo'yalishi
	Ag_2O-ammiakli eritmasi	$HCOOH+Ag_2O \xrightarrow[NH_3]{t} H_2O+CO_2\uparrow+2Ag\downarrow$ chumoli kislota	Idish devorlarida «kumush ko'zgu» hosil bo'lishi
Olein kislota	$KMnO_4$ eritmasi (pushti) yoki I_2 eritmasi (qo'ng'ir)	$S_1H_{33}COOH \xrightarrow[KMnO_4]{HOH,[O]}$ olein kislota $\rightarrow S_8H_{17}-CH-CH-(CH_2)_7-COOH$	Eritmalar-ning rangsiz-lanishi

		OH OH 9,10 - digidroksioktadekan kislota $S_{17}H_{33}COOH+I_2\rightarrow$ olein kislota $\rightarrow S_8H_{17}-CH-CH-(CH_2)_7-COOH$ 9,10-diyodoktadekan kislota	
Atsetatlar (sirka kislota tuzlari)	$FeCl_3$ eritmasi	$3CH_3COONa+FeCl_3\rightarrow$ natriy atsetat $\rightarrow (CH_3COO)_3Fe+3NaCl$ temir (III) atsetat	Eritma ran-gini qizil-qo'ng'ir rangga bo'yalishi
Natriy stearat (sovun)	N_2O (gidroliz)+ fenoftalein	$S_{17}H_{35}COONa+H_2O\leftrightarrow$ natriy stearat $\leftrightarrow S_{17}H_{35}COOH+NaOH$ stearin kislota	Eritmaning malina rangi-ga bo'yalishi
	Kalsiy tuzi-ning to'yingan eritmasi	$2S_{17}H_{35}COONa+Sa^{2+}\rightarrow$ natriy stearat $\rightarrow (S_{17}H_{35}COO)_2Ca\downarrow+2Na^+$ kalsiy stearat	Kulrang cho'kma hosil bo'lishi
	Konsentrlan-gan anorganik kislota	$S_{17}H_{35}COONa+H^+\rightarrow$ natriy stearat $\rightarrow S_{17}H_{35}COOH\downarrow+Na^+$ stearat kislota	Oq cho'kmaning hosil bo'lishi

11 bob. Organik kimyodagi nomli reaksiyalar

1. Vyurs reaksiyasi (alkanlardagi uglevodorod zanjirining uzayishi)

metil xlorid etil xlorid propan

Vyurs-Fittig reaksiyasi (benzol gomologlarining olinishi)



benzol bromid metil bromid toluol

2. Kucherov reaksiyasi (alkinlarning gidratlanishi)

etin vinil spirti etanal



propin propanon-2 (atseton)

3. Zelinskiy reaksiyasi (atsetilenning trimerlanishi)



etin benzol

4. Zelinskiy-Kazanskiy reaksiyasi (siklogeksandan benzolning olinishi)



siklogeksan benzol

5. Konovalov reaksiyasi (alkanlarni nitrolanishi)



metan nitrat kislota nitrometan

6. Zinin reaksiyasi (nitrobenzolni anilingacha qaytarilishi)



nitrobenzol anilin

yoki



7. Gustavson reaksiyasi (sikloalkanlarni digalogenli hosilalaridan olinishi)



4,3-dibrompropan siklopropan

8. Fridel-Kraft reaksiyasi (benzol gomologlarining olinishi)



benzol etilen etilbenzol



propilen izopropilbenzol (kumol)

9. Prilejaev reaksiyasi (etilenni molekulyar kislorod bilan katalitik oksidlanishi)



etilen etilen oksidi (epoksietan)

10. Vagner reaksiyasi (alkanlar, alkinlar va benzol gomologlarining kaliy permanganat bilan oksidlanishi)



etilen etilenglikol

atsetilen etandiat (oksalat) kislota



benzoy kislota

12 bob. Molekuladagi atomlarning o'zaro ta'siri to'g'risidagi tushunchalar

1§. Induksion va mezomer effektlar

Molekulani hosil qiluvchi atomlar yoki atomlar gruppasi, bir-birlariga ta'sir qiladilar va moddaning kimyoviy xossalari shu ta'sirga bog'liq bo'ladi.

To'g'ridan-to'g'ri bog'langan atomlar bir-birlariga eng kuchli ta'sir ko'rsatadilar.

To'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan atomlarning o'zaro ta'sirlari ancha kuchsiz va atomlar bir-birlaridan uzoqlashgan sari bu ta'sir tez so'nadi. Masalan, —SOON gruppasi qo'shni uglerod atomidagi vodorod atomlariga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi (ya'ni bu gruppaga nisbatan α-holatda turgan uglerod atomiga). SHuning uchun karbon kislotalarlga galogenlar ta'sir ettirilganda α-galogen hosilalari hosil bo'ladi.



butan (moy) kislota α-xlormoy (2-xlorbutan) kislota

Atomlarning o'zaro ta'siri elektron zichlikni funksional gruppaga yoki undan siljishi natijasida kimyoviy bog'larning *qisman polyarlanishiga* olib keladi. Natijada atomlarda elementar zaryaddan ($<1{,}6\cdot10^{-19}$Kl) kichik (-σ, +σ) *xususiy* zaryadlar yuzaga keladi.

Elektron zichlikni σ-*bog' zanjiri bo'yicha* siljishi *induksion (I) effekt* nomini oldi.

- agar elektron zichlikni siljishi o'rinbosarga tomon borsa (funksional gruppaga), bunday induksion effekt *manfiy (-I effekt)* hisoblanadi.
- agar siljish o'rinbosardan bo'lsa — *musbat (+I effekt)* bo'ladi.

I effekt, bu effektni yuzaga keltiruvchi o'rinbosardan uzoqlashgani sari tez sustlashadi.

Manfiy induksion effekt molekulada elektron-akseptor (elektrofil) o'rinbosarlar mavjud bo'lganda yuzaga keladi (—SOON, —SNO, >C=O, —NO_2, galogenlar). Bunday o'rinbosarlar uglerod atomlarining zanjiridagi elektron zichlikni *kamaytiradi* (ayniqsa α-holatdagi):

$+\sigma_4 \quad +\sigma_3 \quad +\sigma_2 \quad +\sigma_1 \quad -\sigma$

$CH_3 \rightarrow CH_2 \rightarrow CH_2 \rightarrow CH_3 \rightarrow Cl \quad (\sigma_1>\sigma_2>\sigma_3>\sigma_4)$

Molekuladagi elektrodonor (nukleofil) o'rinbosarlar (—SN_3, —S_2N_5, metallar) mavjud bo'lsa, musbat induksion effekt yuzaga keladi.

Nukleofil o'rinbosarlar uglerod atomlari zanjiridagi (ayniqsa α-holatdagi) elektron zichlikni *kuchaytiradi*, masalan:

$+\sigma \quad -\sigma_1 \quad -\sigma_2$

$CH_3 \rightarrow CH = CH_2 \quad (\sigma_1>\sigma_2)$

Elektron zichlik tutash π-bog'lar *zanjir bo'ylicha siljishiga* (masalan, benzol yadrosida) *mezomer* yoki *M-effekt* deyiladi.

I effektdan farqli, mezomer effekt tutash bog'lar zanjiri bo'yicha susaytirmasdan beriladi. —OH, —NH_2, —CH_3 elektrodonor gruppalari benzol halqasidagi π-bog'lar zanjirdagi elektron zichlikni kuchaytiradi (+M-effekt).

O'rinbosar joylashgandagi uglerod atomlariga nisbatan, ayniqsa orto- va para- holatlarda turgan uglerod atomlarida elektron zichlikni ortishi sezilarli bo'ladi. Masalan, fenol, toluol, anilin, nitrobenzol molekulalarida



Natijada bu holatlarda vodorod atomlari ancha harakatchan bo'ladi va boshqa atomlarga, gruppalarga yoki radikallarga oson almashinadi:





(reaksiyalar oraliq orto- va para- hosilalari bo'lishi orqali boradi)

Benzol yadrosidagi elektron zichlikni oshiradigan va keyingi o'rinbosarlarni orto- va para- holatlarga yo'naltiradigan (—ON, —NH_2, —CH_3,—C_2H_5,—OR, —Cl, —Br, —I) *o'rinbosarlar 1-turdagi orientantlar* nomini oldi.

Elektron akseptor gruppalar π-bog'lar zanjirdagi elektron zichlikni kamaytiradilar (-M effekt). Bunda ayniqsa orto- va para- holatlardagi elektron zichlik sezilarli darajada kamayadi. Meta- holatda turgan uglerod atomining elektron zichligi esa ortadi. Masalan, nitrobenzol molekulasida:



Meta- holatdagi uglerod atomidagi vodorod atomlari harakatchan bo'ladi va boshqa atomlar hamda atomlar gruppasiga oson almashinadi.



Br

m-bromnitrobenzol

—NO_2, —COOH, —CHO, >C=O, SO_3H tipidagi o'rinbosarlar keyingi o'rinbosarlarni ko'pincha meta-holatga yo'naltirganliklari uchun II-tur o'rinbosarlar (orientatlar) nomini oldilar.

O'rinbosarlarning benzol halqasiga ta'sirini, benzolga nisbatan, benzol hosilalarini bir muncha aktivligi fakti ham tushuntiradi. Masalan, fenol, toluol, anilin va nitrobenzol Br_2 bilan ancha kuchli ta'sirlashadilar, bu vaqtda benzolning o'zi esa Br_2 bilan faqat katalizator bo'lganda yoki qizdirilganda va ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirilganda ta'sirlashadi.

Molekulalarda atomlarning ta'siri o'zaro: shunchaki benzol halqasining —ON, —NH_2, —CH_3 gruppalariga ta'siri bu gruppalarning elektron zichliklarini qisman kamayishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida O—N, N—H, C—H bog'larning qutbliligini ortishiga olib keladi, buning natijasida bu gruppalardagi vodorod atomlari ancha harakatchan va almashinishga qobiliyatli bo'ladi. Qisman shu bilan fenolning kuchsiz kislotalik xossasi tushuntiriladi, bunday vaqtda alifatik spirtlar shunday xossaga ega emas.

2§. Fenol va chumoli kislotaning o'ziga xosligi

CHumoli (metan) kislotasini karbon kislotalar gomologik qatordagi boshqa a'zolari bilan taqqoslaganda uning tuzilishi bilan bog'liq bir qator maxsus xossalarga ega.

- chumoli kislotasi molekulasida karboksil gruppasi — SOON uglevodorod radikali bilan emas, vodorod atomi bilan bog'langan. SHu sababli molekulada musbat induksion effekt (+I) kuchsiz ifodalangan va amalda O—N bog'ining qutbliligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Natijada chumoli kislota boshqa bir asosli karbon kislotalariga nisbatan eng kuchlisi hisoblanadi:

O O O



- chumoli kislotasi molekulasida karboksil gruppasi bilan bir qatorda aldegid gruppasini ham ajratish mumkin:



SHuning uchun chumoli kislota kislotalar uchun ham va aldegidlar uchun ham xarakterli reaksiyalarni beradi, ya'ni kumush ko'zgu reaksiyasini va mis (II) gidroksidi bilan reaksiyalarini beradi. Bularda chumoli kislotasi karbonat kislotasigacha oksidlanadi:

$$NSOON+Ag_2O \xrightarrow{NH_3} 2Ag\downarrow+CO_2\uparrow+H_2O$$

$$NSOON+2Cu(OH)_2 \xrightarrow{t} Cu_2O\downarrow+CO_2\uparrow+H_2O$$

qizil rangli cho'kma

- boshqa karbon kislotalaridan farqli chumoli kislotasi qizdirilganda osonlik bilan parchalanadi:

$$NSOON \xrightarrow{H_2SO_4} SO\uparrow + N_2O$$

- chumoli kislotaning angidridi yo'q.

Fenolning o'ziga xosligi uning molekulasining tuzilishi bilan shartlangan.

Fenol molekulasi qutbli (dipol), buning ustiga benzol yadrosi manfiy zaryadli, —ON gruppasi esa musbat. Dipol momenti benzol yadrosi tomon yo'nalgan.



—ON gruppasidagi kislorod atomining bitta elektron jufti benzol halqasidagi π- bilan tutashadi va halqa tomonga siljiydi. Bu bir tomondan benzol halqasidagi elektron zichlikni oshirsa (ayniqsa orto- va para- holatlarda) boshqa tomondan esa —O—N bog'dagi qutblilikni oshiradi. Benzol halqasi va —ON gruppasining o'zaro ta'siri fenolning kimyoviy xossasini aniqlaydi. Birinchidan, benzol halqasidagi orto- va para- holatlardagi vodorod atomlarining almashinish qobiliyatlari ortadi. Almashinish reaksiyasi natijasida odatda fenolning uchlamchi almashgan hosilalari hosil bo'ladi. Ikkinchidan, O—N bog'idagi qutbliilkni ortishi fenol molekulasining suvli eritmalarda kislota tipi bo'yicha dissotsiyalanishiga olib keladi:

$$S_6N_5ON \leftrightarrow S_6N_5O^- + N^+$$

fenolyat loni

Fenol kuchsiz kislota hisoblanadi. Uning alifatik spirtlardan asosiy farqi ham shu bilan ifodalanadi. Alifatik spirtlarda uglevodorod radikalini —ON gruppasiga ta'siri ancha zalf.

Fenol va etanol xossalarini taqqoslash

Fenol	Etanol
Uy temperaturasida - qattiq modda	Uy temperaturasida - suyuqlik
Suvda eruvchanligi cheklangan	Suv bilan istalgan nisbatda aralashadi.
Eritma muhiti kuchsiz kislotali	Eritma muhiti amalda neytral
NaOH bilan fenolyat hosil qilib oson ta'sirlashadi $C_6H_5OH+NaOH \rightarrow C_6H_5ONa+H_2O$	NaOH bilan amalda ta'sirlashmaydi $C_2H_5OH+NaOH \not\rightarrow$

Karbon kislotalari bilan murakkab efirlar hosil qilmaydi (murakkab efirlar faqat kislota oksidlari va xlorangidridlaridan hosil bo'ladi)  Sirka kislota xlorangidridi	Karbon kislotalari bilan osonlikcha murakkab efirlar hosil qiladi $CH_3COOH+C_2H_5OH \leftrightarrow$ $\leftrightarrow CH_3COOC_2H_5+H_2O$
Galogen vodorodlar bilan ta'sirlashmaydilar $C_6H_5OH+HSl$	Galogen vodorodlar bilan galogenalkanlar hosil qiladi $C_2H_5OH+HSl \rightarrow C_2H_5Sl+H_2O$
Vodorod bilan siklogeksanolgacha gidrirlanadi $C_6H_5OH+3N_2 \xrightarrow{t,kat} C_6H_{11}OH$	Vodorod bilan ta'sirlashmaydi $C_2H_5OH+H_2$
Suyultirilgan nitrat kislotasi bilan trinitrofenolni hosil qiladi $C_6H_5OH+3HNO_3 \rightarrow C_6H_2(NO_2)_3OH+3H_2O$	Nitrat kislotasining suvli eritmasi bilan ta'sirlashmaydi $C_2H_5OH+HNO_3$
Konsentrlangan sulfat kislotasi sulfokislotalar hosil qiladi $C_6H_5OH+H_2SO_4 \rightarrow HO-C_6H_4-SO_3H+H_2O$	Konsentrlangan sulfat kislota eritmasi bilan degidratlanish boradi va etilen yoki oddiy efir hosil bo'ladi $C_2H_5OH \xrightarrow[H_2SO_4]{t<140^0C} CH_2=CH_2+H_2O$ $2C_2H_5OH \xrightarrow[H_2SO_4]{t<140^0C} C_2H_5O-C_2H_5+H_2O$
Bromli suv bilan oson ta'sirlashadi va tribromfenol hosil bo'ladi $C_6H_5OH+3Br_2 \rightarrow C_6H_2Br_3OH+3HBr$	Bromli suv bilan ta'sirlashmaydi $C_2H_5OH+Br_2$
Fenol uchun sifat reaksiyalari $FeCl_3$ bilan	$FeCl_3$ ishtirokida rang o'zgarishi

binafsha rang $C_6H_5OH+FeCl_3 \rightarrow (C_6H_5O)_3Fe+3HCl$	kuzatilmaydi $C_2H_5OH+FeCl_3$

13 bob. Organik reaksiyalarning tiplari

1. Birikish reaksiyalari
   - gidridlash (N_2 - birikishi):

$SN_2{=}SN_2+N_2 \xrightarrow{t,kat} SN_3{-}SN_3$

etan

   - gidratlanish (N_2O - birikishi):

$SN_2{=}SN_2+N_2O \xrightarrow{t,kat} SN_3{-}SN_2{-}ON$

etanol

   - gidrogalogenlash (NG - birikishi):

$SN_2{=}SN_2+NCl \rightarrow SN_3{-}SN_2{-}Cl$

xloretan

2. Ajralish reaksiyalari
   - degidridlash (N_2 - ajralishi):

$SN_3{-}SN_3 \xrightarrow{t,kat} SN_2{=}SN_2+N_2$

eten

$S_6N_5{-}SN_2{-}SN_3 \xrightarrow{t,kat} S_6N_5{-}SN{=}SN_2+N_2$

etil benzol vinil benzol

   - degidratlanish (N_2O - ajralishi):

$SN_3{-}SN_2{-}ON \xrightarrow[H_2SO_4]{t=140^0C} SN_2{=}SN_2+N_2O$

etanol eten

   - degidrogalogenlash (NG - ajralishi):

$SN_3{-}SN_2{-}SN{-}SN_2+KOH \xrightarrow{spirt\ sp.} CH_3{-}SN{=}SN_2{-}SN_3+KCl+H_2O$

Cl buten-2

2-xlorbutan

   - degidrotsikllash (N_2 - ajralish bilan bir vaqtda uglerod zanjirini siklga bog'lanishi):



n-geptan toluol

3. O'rin olish reaksiyalari
   - galogenlash (vodorod atomlari, boshqa atomlar yoki gruppalarni galogenlar atomlariga o'rin almashinishi):



metan xlormetan

   - nitrolash (vodorod atomlari, boshqa atomlar yoki gruppalarni nitrogruppa $-NO_2$ga almashinishi):

benzol nitrobenzol

   - sulfolash (vodorod atomlari, boshqa atomlar yoki gruppalarni $-SO_3H$ sulfogruppalarga almashinishi):



benzol HO benzosulfat k-ta

sulfat k-ta

   - alkillash (vodorod atomlari, boshqa atomlar yoki gruppalarni alkil uglevodorod radikali $-R$ ga almashinishi):



benzol etilbenzol

4. Parchalanish reaksiyalari

- bijg'ish (monosaxaridlarni biologik katalizatorlar — fermentlar ta'sirida parchalanishi):
  - ❖ glyukozani spirtli bijg'ishi

    $S_6H_{12}O_6 \xrightarrow{ферменти} 2S_2H_5OH+2CO_2\uparrow$

    glyukoza etanol

  - ❖ glyukozani moy kislotali bijg'ishi

    $S_6H_{12}O_6 \xrightarrow{ферменти} S_3H_7SOOH+2H_2\uparrow+2CO_2\uparrow$

    glyukoza moy kislota

  - ❖ sut kislotali bijg'ish

    $S_6H_{12}O_6 \xrightarrow{ферменти} 2SH_3-\underset{|}{SH}-COON$

    glyukoza ON

    sut kislota

  - ❖ limon kislotali bijg'ish

$$S_6H_{12}O_6+3\,[O] \xrightarrow{ферменти} HOOS-SH_2-\underset{|}{\overset{|}{C}}-SH_2-SOON + 2N_2O$$

glyukoza ON

limon kislota

- kreking (molekulalardagi S—S, S—N bog'larni kam sonli uglerod atomlari bo'lgan molekulalar hosil qilib uzilishi):

$S_4N_{10} \xrightarrow{t,kat} SN_3-SN_3 + SN_2=SN_2$

butan etan eten

- piroliz

$SN_4 \xrightarrow{t} S+2N_2$

5. Almashinish reaksiyalari:

$C_2H_5ONa+H_2O \rightarrow C_2H_5OH+NaOH$

natriy etilat etanol



metilbromid metanol

6. Oksidlanish reaksiyalari

propen (propilen) propandiol-1,3 (propilenglikol)



glyukoza glyukon kislota

7. Qaytarilish reaksiyalari:



etanal etanol



glyukoza sorbit (geksit)

8. Izomerlanish reaksiyalari (qayta gruppalanish) – alohida atomlar yoki gruppalarni molekulani bir joydan boshqa joyga migratsiyasi natijasida bir izomerdan boshqasiga aylanishi:



butan izobutan

9. Polimerlanish reaksiyalari:



vinilxlorid

polivinilxlorid

10. Polikondensatsiyalanish reaksiyalari:



fenol

fenolformaldegid smolasi

Polimerlanish va polikondensatsiyalanish reaksiyalari birikish reaksiyalarining har xil ko'rinishlari hisoblanadi.

Ta'sirlashayotgan moddalar molekulalaridagi kovalent bog'larning uzilishi tipi bo'yicha organik reaksiyalar *gomolitik* va *geterolitik* reaksiyalarga klassifikatsiyalanadi.

- gomolitik uzilish (erkin radikal) — bunday uzilishda juftlashgan elektronlar, kovalent bog'lanishli bo'lib, ikkita yarim erkin radikal hosil qiladi:



erkin radikal

Gomolitik uzilishga qutbsiz yoki kuchsiz qutbli kovalent σ - bog'lanishlar yuqori temperatura yoki kvant nurlari ta'sirida uchraydilar. Hosil bo'lgan zarrachalarga erkin radikallar deyiladi. Erkin radikallar katta energiyaga, yuqori aktivlikka ega va juda qisqa vaqt mavjud bo'ladi. Erkin radikallar bilan boradigan reaksiyalar odatda zanjir tuzilishli bo'ladi. Unga metanga nur yordamida xlorning ta'sir reaksiyasini misol keltirishimiz mumkin:



(almashinish reaksiyasi metan tarkibidagi barcha vodorod atomlarini xlor atomlari bilan almashib bo'lguncha davom etadi).

- geterolitik (ion) uzilish — bunday uzilishda, elektron juftlar elektromanfiyligi kattaroq atomga o'tadi:

$$A|:B \rightarrow A^+ + :B^-$$

karbokation karboanion

Hosil bo'lgan zarrachalarga ionlar deyiladi. Ion tipidagi uzilishlar π – bog'lanishli va qutbli kovalent σ – bog'lanishli birikmalar uchun xarakterlidir. Masalan:

$$SH_2=CH_2+HCl \rightarrow C_2H_5Cl$$

$$SH_2=CH_2 + H^+ \rightarrow CH_3—CH_2^+$$

$$CH_3—CH_2^+ + Cl^- \rightarrow CH_3—CH_2—Cl$$

Organik ionlarning anorganik ionlardan farqi shundaki ular faqat reaksiya paytida vujudga keladi.

5 bo'lim. Organik birikmalarning olinishi

1 bob. Alkanlarning olinishi

Sanoatda

- tabiiy gazlardan va neft tarkibidagi yo'ldosh gazlardan
- suv gazini sintezidan (uglerod (II) oksidi va vodorod aralashmasidan)

$$nCO + (2n+1)H_2 \xrightarrow{t,kat} C_nH_{2n+2} + H_2O$$

$$CO + 3H_2 \xrightarrow{t,kat} \underset{\text{метан}}{CH_4} + H_2O$$

$$2CO + 5H_2 \xrightarrow{t,kat} \underset{\text{этан}}{C_2H_6} + 2H_2O$$

oddiy moddalardan olish – uglerod va vodoroddan

$$nC + (n+1)H_2 \xrightarrow{t,p,kat} C_nH_{2n+2}$$

$$C + 2H_2 \xrightarrow{500\,^oC,Ni} \underset{\text{метан}}{CH_4}$$

$$3C + 4H_2 \xrightarrow{t,p,kat} \underset{\text{пропан}}{C_3H_8}$$

Laboratoriyada

alkenlar va alkinlarni katalitik gidridlash:

$$C_nH_{2n} + H_2 \xrightarrow{t,p,kat} C_nH_{2n+2}$$

$$\underset{\text{этен}}{CH_2{=}CH_2} + H_2 \xrightarrow{400\,^oC,Ni} \underset{\text{этан}}{C_2H_6}$$

